

Date: 23rd December-2024

**OILA, MAHALLA BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY PEDAGOGIK
FAOLIYAT.**

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi

International school of finance technology and science instituti Katta o‘qituvchisi

To‘ychiyeva Nafisa

International school of finance technology and science instituti

“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oila, mahalla bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat qay darajada ahamiyatga ega ekanligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, oila, mahalla bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat muhim o‘rin egallashi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari maqolada mahalla bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib boruvchi o‘quvchilar uchun pedagogik tavsiyalar berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: jamiyat, shaxs, oila, tarbiya, mahalla, pedagogik faoliyat.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat oila va mahallani jamiyatning asosiy tarbiyaviy institutlari sifatida ko‘rib, ularda sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan tizimli ishlarni o‘z ichiga oladi. Bu faoliyat shaxsning har tomonlama rivojlanishini, ijtimoiy moslashuvini va ijtimoiy axloq me’yorlarini shakllantirishni maqsad qiladi. Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy ta‘lim – tarbiya o‘chog‘i bu - oila va maktabdir. Oilada bola tarbiyasi g’oyat nozik va murakkab masala hisoblanib, bu ota-onadan odob, bilim, tarbiyani talab qiladi. Tarbiya ishi ta‘lim muassasalari bilan oila hamda mahalla hamkorligida amalgalashuvini murakkab, ma’suliyatli vazifadir. Bolaning mustaqil va erkin inson sifatida rivojlanishi uchun bиринчи navbatda oila mustahkamligini ta’minlash lozim. Oila jamiyat tayanchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Oiladagi ta‘lim – tarbiyani to‘ldiruvchi bu maktab va mahalla hisoblanadi. Ta‘lim muassasalari, oila va mahalla o‘zaro hamkorlikda ishlashi bola tarbiyasi, ayniqsa uning barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur.

Oila shaxs tarbiyasida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda bиринчи darajali rolni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun unum davomida ta’sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy rollarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o‘z-o‘zini belgilab olishga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshishiga yordam beradi. Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan bizning respublikamizda O‘zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o‘z mavqe’ini hozirgacha ushlab turibdi. Biroq bu holatdagi oila inqirozi ko‘pgina oilalar, shu jumladan, o‘zbek oilalariga ham ta’sir qiladi. Ko‘pbolali o‘zbek oilalarida patriarchal tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta’minlagan, chunki o‘zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko‘nikmalar avloddan-avlodga o’tib keladi. Oila a’zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo‘lib

Date: 23rd December-2024

bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali psixolog, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy ishchilar yordamiga nihoyatda muhtoj bo'lib qolgan. Bu darajaga kelishimizning sabablaridan biri bu -uyali aloqa vositalari, bugungi kunda maktab yoshidagi bolalarning uyali aloqa vositalarini ishlatalishlari u orqali turli xil odobini buzulishiga ta'sir ko'rsatuvchi filmlar, qisqa muddatli videolar hisoblanadi.

Jamiyatda ro'y berayotgan bunday o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-onas, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, sinf rahbari bilan oila o'rtaсидаги bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lismi va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqtiga vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarini belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib borilsa, tarbiya albatta samarali natija beradi. Oilada olib boriladigan ijtimoiy pedagogic faoliyat va ijtimoiy pedagogika yuzasidan juda ko'plab olimlar ish olib borishgan va o'rganishgan. Xususan, ijtimoiy pedagogika muammolari xususida A. V. Mudrik, V.D. Semyonova, G.N. Filova singari olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga fransuz faylasufi, yozuvchisi J.J. Russo ulkan hissa qo'shgan, buyuk pedagog Iogann Genrix Pestalotssi ham o'z faoliyati davomida ijtimoiy pedagogik faoliyatni tadqiq etadi. Bolani har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyaalsh uchun quydagi omillarga e'tibor qaratish zarur.

- Ma'rifiy ishlari: Ota-onalar bilan tarbiya va psixologik bilimlarni oshirish.
- Maslahat xizmatlari: Oila a'zolariga psixologik va pedagogik maslahat berish.
- Oila muhitini mustahkamlash: Ijtimoiy muammolarni aniqlash va bartaraf etish.

Oilalar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatda bir qator murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Ushbu muammolarni quyidagi asosiy toifalarga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar: Oilaviy sharoit ijtimoiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan asosiy omillardandir. Bularga **moddiy qiyinchiliklar, ishsizlik: uy-joy muammolarini kiritishimiz mumkin**

2. Psixologik va emotsiyal muammolar. Oiladagi ruhiy muhit bola va ota-onalar munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi. Bular: **Oilaviy nizolar, zo'ravonlik, stress va ruhiy charchoqni o'z ichiga oladi**

3. Tarbiyaviy va pedagogik muammolar. Oiladagi ta'lismi darajasi va tarbiya usullari bolalar rivojlanishining asosiy omillaridir. **Tarbiyaning noto'g'ri usullari, ota-onalarning pedagogik savodxonligi pastligini kiritishimiz mumkin.**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oila va mahalla bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Date: 23rd December-2024

Oilaviy muhitda shakllangan tarbiya va qadriyatlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi, mahalla esa bu jarayonni keng ijtimoiy muhitda mustahkamlaydi. Biroq, oilalar bilan ishlash jarayonida moddiy, psixologik, tarbiyaviy, madaniy va huquqiy muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lif muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va mahalla faollari o'zaro hamkorlikda ishlashi zarur. Oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, huquqiy maslahatlar, psixologik xizmatlar va ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish bo'yicha doimiy tadbirdarni tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, zamonaviy hayot talablari va milliy an'analarning uyg'unligini ta'minlash, oiladagi tarbiyaviy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiyadolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy-siyosiy siyosat yuritish jamiyat taraqqiyotining asosiy kafolati hisoblanadi. Oilalar va mahallalar bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish kelajak avlodning bilimli, tarbiyalii va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika.T.:A.Navoiy nomidagi O'zb-n Milliy kutubxonasi nashriyoti,2009
2. Quronov M.Ijtimoiy pedagogika.-T.: Nizomiy nomidagi TDPU,2003
3. SidiqovaSh. Tinglovchilarni ijtimoiy -pedagogik faoliyatga tayyorlash-T.: Nizomiy nomidagi TDPU,2009
4. OLIMJONOVA, Z. (2024). OILADAGI SEVGI-ER-XOTIN MUNOSABATLARINING ASOSI SIFATIDA. *UzMU xabarlari*, 1(1.2. 1), 165-168.
5. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. *Journal of new century innovations*, 27(2), 46-49.
6. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 235-238.
7. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. К. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
8. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 70-74.
9. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҲОЛАТИ. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 663-670.
10. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRINI EMPIRIK O'RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 73-82.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.
International online conference.**

Date: 23rd December-2024

11. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(9), 22-27.

